

SUN'IY INTELLEKTNING INGLIZ TILINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

Baxriddinova Laziza Farrux qizi

Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola bugungi kunda ommalashib borayotgan texnika mójizasi deb qaralayotgan sun'iy intellekt va uning imkoniyatlari xususan ingliz tilini o'qitish jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada sun'iy intellekt ingliz tilini o'qitishni qanday yaxshilashi, o'qituvchilarga vaqtni tejashga yordam berishi va turli ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashi mumkinligi haqida so'z boradi.*

Annotation: *This article analyzes artificial intelligence, which is considered one of the most popular technological innovations of today, and its capabilities, particularly its importance and effectiveness in the process of teaching English. The article discusses how artificial intelligence can improve English language teaching, help teachers save time, and support students with diverse learning needs.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, raqamlashtirish, onlayn platforma, Duolingo, babbel*

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal sur'atlarda rivojlanib, ta'lim tizimiga chuqur kirib bormoqda. Keskin rivojlanib borayotgan bir zamonda har bir ta'lim olayotgan yosh avlod zamon bilan hamnafas bo'lish kerak. Ta'limning raqamlashtirilishi — bu nafaqat texnik vositalardan foydalanish, balki bilim olish jarayonining sifati, tezligi va qulayligini yangi yollar orqali yuqori darajaga olib chiqishdir. Sun'iy intellekt nafaqat ingliz tilini, balki barcha chet tillarini o'qitish jarayonidagi o'rni va ahamiyati alohida o'rin egallaydi.

Sun'iy intellekt ta'lim sohasida tobora keng tarqalib bormoqda va uning o'qitish jarayonidagi roli va ahamiyati juda katta. Bugungi kunda sun'iy intellekt orqali ingliz tilini yangi va qiziqarli usullarda o'rgatish keng qo'llanilmoqda. U o'qituvchilar va o'quvchilarga ta'limni tezroq, osonroq va qiziqarliroq qiladigan vositalarni taklif qilish orqali yordam beradi. AI vositalari individual o'quv dasturlarini yaratish, grammatik xatolarni tuzatish, yangi so'zlarni eslab qolishni osonlashtirish hamda real suhbatlarda mashq qilish imkonini beradi. Babbel, Duolingo, Grammarly, Quizlet va ChatGPT kabi ilovalar til o'rganish jarayonini individuallashtiradi va uni qiziqarli hamda interaktiv holga keltiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, sun'iy intellekt o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi, balki qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qiladi, o'qitish imkoniyatlarini kengaytiradi va ta'lim natijalarini yaxshilaydi. Ingliz tili darslarida sun'iy intellektdan foydalanish o'quvchilar va o'qituvchilar uchun ko'plab afzalliklarni ochib beradi.

O'qitishni shaxsiylashtirish. Sun'iy intellektning asosiy afzalliklaridan biri har bir o'quvchi uchun individual ta'lim yo'nalishlarini yaratish imkoniyatidir. Bu, ayniqsa, tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lgan sinflar uchun juda qulaydir. Moslashuvchan tizimlar o'quvchining bilim darajasiga mos keladigan topshiriqlarni tanlashi va mavzuni chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha manbalarni taklif qilishi mumkin. Shuningdek, mavzularni mustahkamlash uchun turli xil qiziqarli metodlarni chiqarib beradi. Shunday qilib, sun'iy

intellekt o'quvchilar o'rtasidagi bilim darajasidagi tafovutni bartaraf etishga va ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Til ko'nikmalarini rivojlantirish. Sun'iy intellekt tinglash, talaffuz va yozma topshiriqlar bilan samarali ishlay oladi. Sun'iy intellektdan foydalanadigan platformalar o'quvchilarning talaffuzini tahlil qilishi, uni elektron talaffuz bilan taqqoslashi va uni yaxshilash bo'yicha maslahatlar berishi mumkin. Bundan tashqari, tizimlar turli xil urg'ular va nutq tezligini taklif qilish orqali tinglab tushunishni mashq qilish uchun vazifalarni yaratishi mumkin, bu esa o'quvchilarga inglizcha nutqni tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli platformalar rivojlanishi bilan ingliz tilini o'qitish va o'rganish osonlashdi. Sun'iy intellekt ingliz tilini o'rganishni individuallashtirish imkonini beradi. Shunga o'xshash platformalar o'quvchining bilim darajasini aniqlab, unga mos topshiriqlarni taqdim etadi. Shuningdek murakkab mavzularni ham turli xil osson yollar orqali tushuntiradi. Bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Yana qo'shimcha qilib aytadigan bolsak sun'iy intellekt o'qituvchilarga vaqtini tejashga yordam beradi. Masalan, test va yozma ishlarni avtomatik tekshirish tizimlari baholash jarayonini tezlashtiradi hamda subyektivlikni kamaytiradi. Natijada o'qituvchi metodik faoliyatga ko'proq e'tibor qaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yosh avlodga sun'iy intellektning yana bir foydali tomonlaridan biri turli ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlaydi. Nutqni aniqlash texnologiyalari talaffuzni yaxshilashga yordam bersa, interaktiv chatbotlar muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu ayniqsa, mustaqil o'rganishda samarali vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda sun'iy intellektdan texnologiyalaridan foydalangan holda, o'qituvchilar til o'rganish tajribasini optimallashtirishi, til ko'nikmalarni egallashni osonlashtirishi va talabalarning ingliz tilida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga mumkin. Shunday qilib, ingliz tilini o'rganishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda, balki umumiy ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishda ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent, 2022.
2. Raqamli ta'lim va innovatsion metodlar. – Toshkent, 2023.
3. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. – Journal of Educational Technology, 2021.
4. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge University Press, 2006.